

**NUTQ BUZILISHLARI ETIOLOGIYASI HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNI BOLANING UMUMIY VA XUSUSIY KOMPONENTLARI RIVOJLANISHIDAGI O’RNI**

**Ro‘ziyeva Nozimaxon Oybek qizi**  
**Andijon davlat pedagogika instituti**  
**Maxsus pedagogika: logopediya yo‘nalishi 3-kurs talabasi**  
**E-mail: [nozimaroziyeva05@gmail.com](mailto:nozimaroziyeva05@gmail.com)**  
**Tel: +998 88 048 04 09**

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21133170>**

**Annotatsiya:** Barcha nutq buzilishlarining kelib chiqish sababi (etiologiyasi) ni o‘rganish, har bitta nutq kamchiligining o‘ziga xos etiologiyasi haqida va bu sabablarning oqibatlari qanday kechishi borasida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Etiologiya, prenatal, natal, postnatal, asfiksiya, kauzzalik, determenizm, etiologik muammolari.

**ПОНИМАНИЕ ЭТИОЛОГИИ НАРУШЕНИЙ РЕЧИ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩИХ И СПЕЦИФИЧЕСКИХ КОМПОНЕНТОВ РЕБЕНКА**  
**Розиева Нозимахон Ойбек кизи**

**Андижанский государственный педагогический институт**  
**Специализация: 3 курс логопедии**  
**E-mail: [nozimaroziyeva05@gmail.com](mailto:nozimaroziyeva05@gmail.com)**  
**Тел.: +998 88 048 04 09**

**Аннотация:** В статье рассматриваются причины (этиология) всех речевых расстройств, специфическая этиология каждого речевого дефекта и последствия этих причин.

**Ключевые слова:** этиология, пренатальный, натальный, постнатальный, асфиксия, причинно-следственная связь, детерминизм, этиологические проблемы.

**UNDERSTANDING THE ETIOLOGY OF SPEECH DISORDERS AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF THE CHILD'S GENERAL AND SPECIFIC COMPONENTS**

**Ro'ziyeva Nozimakhon Oybek qizi**  
**Andijan State Pedagogical Institute**  
**Special pedagogy: 3rd year student of speech therapy**  
**E-mail: [nozimaroziyeva05@gmail.com](mailto:nozimaroziyeva05@gmail.com)**  
**Tel: +998 88 048 04 09**

**Abstract:** The study of the cause (etiology) of all speech disorders, the specific etiology of each speech defect, and the consequences of these causes are discussed.

**Keywords:** Etiology, prenatal, natal, postnatal, asphyxia, causality, determinism, etiological problems.

**Kirish.** XXI asr, ayni zamonaviy, gullab yashnagan asr. Bu davrda har sohada yangiliklar, innovatsiyalar va bir qancha kashfiyotlar yaratilib kelmoqda. . Shu bilan birgalikda turli tumman kasalliklar ham o’zini ko’rsatmay qo’ymayapti Hozirgi kunda jamiyatimizda bir necha yillardan beri tuzalmas kasalliklarga ham yeshim topilmoqda, lekin atmosfera havosi va turli zararli omillar natijasida yana yangidan yangi kasalliklar paydo bo’lmoqda. Ayni shundan kasalliklar ham logopediya sohasida aniqlanmoqda. Buni bir so’z bilan “Nutq kamchiliklari” deya ta’riflashimiz mumkin. Har qanday kasallikni o’ziga xos kelib chiqish sababi bo’ladi. Aynan shunday nutq kamchililarini ham o’ziga hos kelib chiqish etiologiyasi mavjud.

**Asosiy qism.** “Etiologiya” termini grekcha so’zdan olingan bo’lib, (etio – sabab, logos – fan, o’rganish) sabablarni o’rganuvchi fan ma’nosini bildiradi [1]. Biz etiologiya tushunchasini har sohada qo’llashimiz mumkin. Ya’ni biron ishni yani oqibatni yuzaga kelishi uchun albatta uni sababi bo’lishi lozim. Huddi shunday biron bir nutq nuqsonini ham paydo bo’lishi albatta biron bir sabab natijasida yuzaga keladi.

Yirik patafiziolog I.V.Davidovskiyning tadqiqotlari bu muammoni hal qilishga katta hissa qo’shdi. Uning yozishicha: “ Har qanday asl mazmun sabablardan boshlanib keladi, ya’ni kauzzalik va determenizm tushunchalaridan boshlanadi. Bu ikki bir biriga bog’liq, biroq har hil tushunchalar ikki tomonlama talqin etiladi. Birinchi tomondan sababiyat haqida, ya’ni sabab-oqibat munosabatlari sifatida sharhlansa (aslida “etiologiya” tushunchasining mazmuni shunday bo’lishi kerak), ikkinchi tomondan hodisalar mohiyatini bilish haqida, ya’ni uning asosida yotgan qonuniyatlarni bilish sifatida sharhlanadi”[1].

Haqiqatdan ham yuqoridagi olimning fikrlarini maqullasa bo’ladi albatta. Bir so’z bilan kauzzalik ya’ni hodisalar o’rtasida sabab – oqibat borligini bildiruvchi termin ham malum bir kasallikni oqibat, uning qanday qilib kelib shiqqanligini sabab deya qarashga majbur qiladi. Unga hamohang bo’lgan determenizm ya’ni barcha voqea va hodisalar qonuniyatlarga ko’ra yuz beradi. Bu ikkala tushuncha ham har bir kasallikning kelib chiqish tarixi, sababi bor deya ko’rsatadi.

Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko’ra ikki guruhga bo’linadi:

1. Organik harakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funksional harakterdagi nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o’z navbatida ma’lum joyning zararlanishiga ko’ra:

1. Markaziy
2. Periferik .

Funksional buzilishlar – bunda nutq jarayonida ishtirok etadigon a’zolar tuzilishida hech qanday o’zgarishlar bo’lmaydi [2]. Funksional nutq buzilishini bir so’z bilan noto’g’ri nutqiy malaka deb qarashimiz ham mumkin. Chunki bunda bolada nutq apparatining anatomik tuzilishida jiddiy nuqson kuzatilmasada, tovushlarni to’g’ri talaffuz qilish, ularni farqlash va nutqda qo’llash jarayonida kamchiliklar namoyon bo’ladi. Bunday holat ko’pincha noto’g’ri nutqiy muhit, taqlid, pedagogik qarovsizlik yoki artikulyatsion mashqlarning yetarli rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli funksional nutq buzilishlarini barvaqt aniqlash hamda logopedik korreksion ishlarni izchil tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq buzilishlarini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi [2]. Ekzogen – organik omillar deganda bola markaziy nerv sistemasiga va bola organizmiga yaxlit ta’sir

etuvchi turli hil zararli ta’sirlarni tushunamiz. Bu omillarning ta’sir etish vaqtiga qarab quyidagilarga bo’linadi:

1. Homiladorlik, ya’ni (prenatal) bolaning ona qornidaligi vaqtidagi ta’sirlar.
2. Tug’ruq vaqtidagi jarohatlar (natal).
3. Turli xil zararli omillarning tug’ruqdan keyingi davrda ta’siri (postnatal) [1].

Yuqoridagi sabalarni keng qamrovlixa ko’rib chiqamiz. Prenatal ya’ni bolaning ona qornidaligi vaqti, bunda asosan homiladorlik paytida onaning qattiq stress va depressiyaga uchraganligi, homilaning turli zararli omillar bilan: alkogol, tamaki, kuchli antibiotiklar tasirida zararlanganligi, homila rivojlanishi uchun zarur bo’lgan oqsil va vitaminlarning yetishmasligi nutq nuqsonini keltirib chiqaruvchi prenatal sabab hisoblanadi. Ikkinchi asosiy sabablardan biri natal yani tug’ruq paytidagi travmalar. Bunda asosan bolaning vakum eksrakti, ombur bilan olinishi, onaning chanoq suyagi torligi sababli bola boshining tug’ruq yo’lidan siqilib o’tishi va uzoq qolib ketishi bularning barcha barchasi nutq nuqsonlarini keltirib chiqaruvchi ikkinchi asosiy sabab natal davr hisoblanadi. Bundan tashqari natal davr uchun xos bo’lgan yana bir xususiyat bu – asfiksiyadir. Asfiksiya bu organizmda kislorod yetishmasligidir. Ya’ni bola tug’ruq yo’lida ko’p qolib ketishi natijasida nafas olishning kamayishi sababli kislorod yetishmaslik holati kuzatiladi. Uchinchi sabab esa postnatal sabab hisoblanadi. Bu asosan bola tug’ilganidan keyingi sabablar hisoblanadi. Ya’ni bola tug’ilganidan so’ng olgan jarohatlari va turli psixik ta’sirlar natijasida nutq nuqsonini keltirib chiqarishi mumkin.

Nutq buzilishlari etiologiyasida nasliy omillar ham ma’lum ahamiyatga ega. Ko’pincha ular, hatto ahamiyatsiz omillar ta’siri ostida nutq patologiyalarini yuzaga keltiruvchi “moyillik” vazifasini bajaradilar.

Nutq buzilishlarini kelib chiqishida nasliy omillar, odatda, ekzogen- organik va ijtimoiy omillar bilan birgalikda keladi. Shuningdek, ular ayrim nutq buzilishlarining keltirib chiqarishda boshlovchi omil bo’lib xizmat qiladilar. Bularga xromosoma sindromi va nerv tizimini nasliy degenerativ kasalliklarida kuzatiluvchi nutq buzilishlari nomi bilan alohida guruhni tashkil qiladi. Ularning xususiyati kasallikning o’zidan kelib chiqadi [1].

Haqiqatdan ham nutq nuqsonlari nafaqat orttirilgan va homiladorlik paytida paydo bo’lgan balki nasladan naslga o’tuvchi ham bo’lishi mumkin. Bu albatta nasliy omil bo’lib xizmat qiladi va avlodlarda dominant va retsessiv ko’rinishda namoyon bo’lishi mumkin.

Xromosoma sindromi (yoki xromosoma kasalligi) tug’ma hisoblanadi va odatda, progridient oqimga ega bo’lmaydi. Deyarli barcha xromosoma sindromlarida bolaning jismoniy, nerv-psixik rivojlanishida orqada qolish kuzatiladi, shuningdek, u yoki bu darajada nutq rivojlanishi ham buziladi.

Xromsoma sindromi ikki guruhga bo’linadi:

Birinchi guruh – autosoma strukturasi yoki sonining o’zgarishi bilan bog’liq sindromlar

Ikkinchi guruh – jinsiy xromosomalarning o’zgarishi bilan bog’liq sindromlar [1].

Shunday ekan barcha nutq nuqsonlarining kelib chiqishi turlicha bo’lishi mumkin. Shu bilan birgalikda etiologiyalarni o’rganish davomida bir qancha muammolarni ham uchratishimiz mumkin.

Nutq buzilishlari etiologiyasining muhim muammolari quyidagilardir:

1. Miya jarohatlanishi vaqti, xarakteri va o’chog’ini hisobga olgan holda po’stloq genezi (alaliya, afaziya) sistemali nutq buzilishlari sababini o’rganish.
2. Turli xil ko’rinishdagi nutq buzilishlarining kelib chiqishida nasliy omillar rolini aniqlash.

3. Duduqlanishning turli xil shakllarini keltirib chiqarishga moyil sharoitlar va sabablarni batafsil o’rganish.

4. Nutq buzilishlarining tarqalganligi va uning sabablari haqida statistik ma’lumotlarni o’rganish [1].

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun yangidan yangi korreksiya ishlarini amalga oshirish va kasalliklarning sababini chuqurroq o’rganish bunday muammolarni sonini kamaytirishga yordam beradi.

Boladagi nutq buzilishlari nafaqat talaffuz jarayoniga, balki uning psixik rivojlanishi, tafakkuri, xotirasi va ijtimoiy moslashuviga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi[3]. Haqiqatdan ham nutqda kuzatiluvchi buzilishlar faqatgina nutqni emas balki nutq hosil bo’lgunga qadar va undan keyin amalga oshadigon jarayonlarga ham o’z ta’sir kuchini ko’rsatadi. Ya’ni bola nutqida kamchiligi bo’lsa u omma oldida gaprishga uyaladi, natijada uning psixikasida salbiy og’ishlar yuzaga keladi. Bundan tashqari uning ijtimoiylashuv jarayonida ham ortda qolishiga sabab bo’ladi. Natijada bolaning tashqi muhitga integratsiyasi yo’qolib boradi, shu bilan birgalikda bilish jarayonlarida ham turli buzilishlar kuzatiladi.

Tafakkurning o’ziga xos xususiyatlari uni til bilan bevosita bog’liqligidir. Tafakkur nutqda namoyon bo’ladi. Tafakkur inson hayoti tajribasida sezgi, idrok va tasavvurlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok asosida olamni aks ettirish yanada aniq va to’g’ri bo’ladi. Tafakkur borliqni umumlashgan holda aks etishidir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bulganda tafakkur ishga tushadi[4]. Aynan shuning uchun ham nutq komponentlari tafakkur jarayoni bilan o’zaro bog’liqdir. Shu sababdan bolaning nutqi rivojlanuvchi muhitning qay darajada talabga javob berishini, uning bolaga qanchalik ijobiy ta’sir etish doiralarini bilish ayniqsa muhimdir. Chunki aynan nutq jarayonida tafakkur ham birdek rivojlanib boradi, agarda nutqda qandaydir buzilish kuzatilsa bu albatta tafakkurga ham o’z ta’siri ko’rsatmay qolmaydi.

**Xulosa.** Xulosa o’rnida shuni aytishimiz joizki har bir kasallikning ortida o’ziga xos etiologik xususiyatlari o’rin olgan bo’ladi. Huddi shunday nutq nuqsonining ham o’ziga xos kelib chiqish sabablari mavjuddir. Bunday sabablar oqibatida nafaqat bir organ, balki u bilan bog’liq bo’lgan bir necha organlar ham zararlanadi. Misol tariqasida nutq ya’ni insonning faol muloqot organi. Bu organda yuzaga keluvchi buzilishlar faqatgina nutq rivojlanishini izdan chiqaribgina qolmay, unga javob beruvchi va u bilan hamkorlikda ishlovchi o’zaro bir biri bilan bog’langan oranlarni ham ishini normadan chetga chiqarishi mumkin. Shu bois endi o’sib kelayotgan har bir yosh avlodni yashayotgan ijtimoiy muhitini nazorat qilish har qachongidan ham muhimroqdir. Chunki yosh bolalarga noto’g’ri oilaviy muhit, noto’g’ri tanlangan do’stlar davrasi, o’quv jarayonida o’qituvchi tomonidan talab qilinadigon haddan tashqari og’ir yuklamalar va qattiqo’lik bolaning nutq rivojlanishidagi buzilishlarni keltirib chiqarish bilan bir qatorda, uning psixik jarayonlarini, bilish jarayonlari ishini buzishi ham mumkin. Shu sababli rivojlanayotgan bolaning tashqi muhitdan kelayotdan turli xil ta’sirlardan himoya qilish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Y.Ayupova, Logopediya o’quv darsligi, O’zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti Toshkent 2007.
2. T.B.Filicheva, L.C.Volkova, G.V.Chirkina, L.Mo’minova, M.Ayupova, Logopediya o’quv qo’llanma, Toshkent – o’qituvchi – 1993.
3. A.P. Лурия Основы нейропсихологии. — Москва: Академия, 2003.
4. S.Hasanov D.Abdumadjidova N.Ataeva “Shaxsning bilish jarayonlari” Toshkent – 2016